GLOBALIZATSIYA DAVRIDA ETNIK GURUHLAR MADANIY MUSHTARAKLIGI VA TARJIMADAGI TIL QIYINCHILIKLARI

Munosibxon Saidaxmadovna Ishanjanova
ishanjanova77@mail.ru
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Maqolada globalizatsiya sharoitida etnik madaniyatlarning yaqinlashuvi natijasida vujudga kelayotgan tarjima jarayonidagi til va madaniyatga oid muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniyatlararo tafovutlarni moslashtirish, til birliklarining maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tarjima qilinishi va “madaniy burilish”ning tarjima sifatiga ta’siri yoritiladi. Maqola tarjima jarayonida lingvistik strukturalar bilan birga madaniy mazmunni to‘g‘ri yetkazishning ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, etnik madaniyatlar, til bilan bog‘liq muammolar, tarjima nazariyasi, Skopos nazariyasi

THE CULTURAL CONVERGENCE OF ETHNIC COMMUNITIES IN THE ERA OF GLOBALIZATION AND THE LINGUISTIC DIFFICULTIES IN TRANSLATION

Munosibkhon Saidakhmadovna Ishanjanova
ishanjanova77@mail.ru
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: The article analyzes linguistic and cultural problems that arise in the translation process as a result of the convergence of ethnic cultures in the context of globalization. It also highlights the adaptation of intercultural differences, the purposeful translation of linguistic units, and the impact of the “cultural turn” on translation quality. The article substantiates the importance of conveying cultural content accurately along with linguistic structures during the translation process.

Keywords: Globalization**,** Ethnic Cultures**,** Linguistic Problems**,** Translation Studies**,** Skopos Theory

Kirish: Globallashuv jarayonida turli etnik guruhlar madaniyatlarining yaqinlashuvi tarjima jarayonidagi lingvistik muammolarni hal etish hamda madaniyatlararo ziddiyatlarni o‘rganish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnga yo‘naltirilgan yondashuvdan antropotsentrik paradigmaga o‘tish tarjimonning faqat matn bilan emas, balki tarjima jarayoniga shaxsiy nuqtai nazardan yondashishini

(cc) BY

anglatadi. Bu esa tarjima yakuniy natijasiga ta’sir qiluvchi turli madaniy va etnopsixolingvistik omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tarjima jarayonining lingvistik va madaniy jihatlariga oid masalalarda Yevropa olimlari J. Catford, S. Bassnett, A. Lefebvre, G. Toury, J. Holmes, I. Even-Zohar va K. Rays, shuningdek, rus lingvistlari V.V. Vinogradov, T.A. Kazakova, V.N. Komissarov, G.T. Kuxun, L.L. Nelyubin, V.E. Gorshkova va N.N. Boldireva tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. 1990-yillarga kelib, tarjima tadqiqotlarida yangi madaniy yo‘nalish paydo bo‘ldi. O‘sha davrning taniqli tarjimashunoslari S. Bassnett va A. Lefebvre G. Toury, J. Holmes, I. Even-Zohar, K. Rays va G. Fermer tomonidan ilgari surilgan “Skopos” nazariyasiga, hamda M. Baker tomonidan taqdim etilgan korpus lingvistikasining asosiy tamoyillariga tayangan holda “madaniy burilish” yondashuvini ishlab chiqdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. “Skopos” nazariyasi maqsadga yo‘naltirilgan tarjimaga e’tibor qaratadi, ya’ni tarjima muayyan masalani hal qilishga xizmat qilishi kerak. Maqsadga yo‘naltirilgan tarjima madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjima matnini yaratishni nazarda tutadi. G.Fermer tarjima sifatini faqat tilni bilish bilanoq belgilab bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati bor va bu, albatta, uning tilida o‘z aksini topadi. Shu bois tarjimon tarjima qilinayotgan asarning madaniyatidan xabardor bo‘lishi zarur.

“Skopos” nazariyasi vakillari tarjima jarayonida matnda yuz beradigan o‘zgarishni “og‘zaki nutqda aks etuvchi madaniyatlararo tushunchalarni o‘z ichiga olgan madaniy transfer” sifatida izohlaydilar. Zamonaviy tarjimashunoslar o‘z tadqiqotlarida madaniyatga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llaydilar. Shuningdek, ingliz tarjimoni P. Rabel (Paula Rubel) tarjimada fanlararo yondashuvning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi[1]. Haqiqatan ham, tarjima nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik, antropologiya va etnografiya bo‘yicha ham bilimlarni talab qiladi.

Fanlararo yondashuv tarjima maqsadlariga erishishda ijobiy natijalar beradi. U. Eko esa tarjima jarayonida madaniy xususiyatlarni hisobga olish va madaniy tushunchalarni o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazishni tarjimaning asosiy mezoni deb hisoblaydi[2]. N.K. Garbovskiy tarjimonni “ikki tilli shaxs”, ya’ni bir vaqtning o‘zida ikki madaniyatni ifodalovchi inson sifatida ta’riflaydi[3]. Biroq lingvistik-etnik to‘siqlarning, ya’ni madaniyatlar o‘rtasidagi katta farqlarning mavjudligi tarjimada muammolar tug‘diradi. Madaniy tushunchalarni tarjima qilish kundalik umumiy leksik birliklarga qaraganda ancha murakkabdir. Bunday holatlarda tarjimondan o‘quvchiga notanish tushunchalarni ma’lum yondashuvlar orqali yetkazib berish kutiladi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy tilshunoslikda tarjima madaniy almashinuv shakli sifatida turli til jamoalari o‘rtasidagi muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqotni

(cc) BY

ta’minlaydigan noyob vosita sifatida qaraladi. Tarjima jarayonida ikki tilning o‘zaro ta’siri sodir bo‘lmaydi, balki ushbu tillarga xos madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir yuz beradi. Tarjimaning tor ma’nosida til tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, keng ma’nosida esa tillar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqotdir.

Professional tarjimani muhokama qilganda, L.L. Nelyubin va G.T. Kukhun matn tarjimasini tarjimonning bilim va ko‘nikmalari, tilga bo‘lgan yetukligi hamda lingvistik va til tashqari birliklarni kontekstda qo‘llay olish qobiliyati nuqtai nazaridan baholaydilar. Tarjima san’ati tarjimondan ushbu qobiliyatlarni egallash va to‘g‘ri qo‘llay olishni talab qiladi [5].

V.N.Komissarov tarjimaning “murakkabligi va ko‘p qirrali tabiati”ga alohida e’tibor qaratadi va uning turli madaniyatlar, shaxslar va tafakkur jarayonlarining o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi tarjimon quyidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishi kerakligini bildiradi:

1. Lingvistik birliklarning semantik xususiyatlari.

2. Til orqali ifodalashdan tashqaridagi haqiqatni ko‘rsatishga mo‘ljallangan dunyoni tilning turli vakillari orqali ifodalashdagi farqlar.

3. Tarjima matnida tasvirlangan haqiqatning o‘ziga xos xususiyatlari[4].

N.N. Boldirev tarjima matnida milliy xususiyatlarni aks ettirish milliy madaniyatning lingvistik ifodalarini o‘z ichiga olishini va dunyoning lingvistik tasviri o‘sha til so‘zlovchilarining dunyoqarashini aks ettirishini ta’kidlaydi[6].

C. Levi-Strauss til, tafakkur va lingvistik ifodalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni dunyo lingvistik manzarasida milliy-madaniy meros fenomeni sifatida ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi. Madaniyatlar o‘rtasidagi chuqur farqlar til manzarasida ikki til so‘zlovchilari o‘rtasida “madaniy to‘qnashuvlar”ga olib kelishi mumkin, bu esa asl matnni noto‘g‘ri tushunishga sabab bo‘ladi.

Til odamlarning dunyoqarashini aks ettiradi; shuning uchun tilning ma’no tizimi ularning madaniy normalari bilan bevosita bog‘liqdir. Tilshunoslikda asosiy madaniy stereotiplar, ramzlar va jamiyatning standartlari dunyoning lingvistik tasviri prizmasi orqali yetkaziladi. V.A.Maslova fikricha, lingvistik tafakkurning eng muhim jihatlaridan biri milliy mentalitet bo‘lib, u ma’lum bir jamoaning ijtimoiy ongining hayotdagi namoyon bo‘lishi, tafakkur jarayonlari hamda tarixiy va barqaror shakllarni o‘z ichiga oladi[8]. Milliy mentalitet tilning leksik-semantik tizimi va grammatikasida aks etadi, bu esa madaniyatlararo optimizatsiya nuqtai nazaridan muloqotning yetarliligi va asl matnning “milliy dunyo”si hamda madaniy xususiyatlarini yetkazish qobiliyatini ayniqsa muhim qiladi.

G.Gachev “milliy dunyo” tushunchasi millat vakillarining mahalliy tabiati, xarakteri va tafakkurini, shuningdek, bu g‘oyalar etnik guruh ongida qanday aks etishini o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi. Madaniyatning ushbu elementlarini o‘rganish

(cc) BY

tarjimonga ishlatiladigan til birliklari tizimini ifodalash va tilning chuqur semantik tuzilishini aniqlash imkonini beradi[9].

Tarjimaning muhim jihatlaridan biri nafaqat tarjimonning bilimlari, balki ushbu bilimlar asosida muloqotiy bog‘lanishni ta’minlash qobiliyatidir. Bu, jumladan, semantik ma’nolarni ifodalash va ona til so‘zlovchilari nutq madaniyati normalariga rioya qilishni o‘z ichiga oladi. Asosiy bilimlar lingvistik muloqotning poydevoridir va tarjimada u turli til-madaniyat hamjamiyatlarida asimmetrik tarzda ifodalanadi. Bunday asimmetriya tarjimadagi tillararo o‘zaro ta’sirda aniq ko‘rinadi: ayrim tilarda haqiqat ob’ektlari madaniy tushunchalar orqali tasvirlanadi, boshqa tillarda esa shunga o‘xshash tushunchalar yoki kengaytirilgan ma’nolar ishlatiladi.

Tarjimon dastlab madaniy tushunchalarni maqsadli til va madaniyat prizmasi orqali moslashtirishga harakat qiladi. Asimmetriya ikki tillilikning xarakteristikasi bo‘lib, ko‘pchilik tarjimonlarning ongida ona tili ustunlik qiladi; ular boshqa tillar va madaniyatlarni moslashtirishga harakat qiladilar, lekin noyob madaniy elementlarni aks ettirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Tarjimadagi to‘siqlar ko‘pincha milliy til shakllarining mavjudligi va boshqa tilda ekvivalentlarning yo‘qligidan kelib chiqadi. Bunday til shakllariga metaforalar, ko‘p ma’nolilik, figurativ ma’nolar, stilistik figuralar va so‘zlarning semantikasidagi konnotativ komponentlar kiradi. Bundan tashqari, asl matnda tasvirlangan voqealar maqsadli madaniyatda mavjud bo‘lmaganda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Asarlarni tarjima qilishning o‘ziga xos jihatlari bir madaniyat kodidan boshqasiga o‘tkazish, muayyan vaziyatlarda duch kelinadigan qiyinchiliklarni yengish va umumiy holda muloqotiy muammolar majmuini o‘z ichiga oladi. Ma’lum bir asarni tarjima qilish asl matnning yangi talqinini ifodalaydi, chunki tarjima asl matnni boshqa til va madaniy tizimga kiritadi.

Boshqa madaniyat matnini qabul qilish jarayonida o‘quvchi uni o‘z hayot tajribasi bilan solishtiradi, bu esa tarjima matnining yangi madaniy muhit kontekstida boyishi va rivojlanishiga olib keladi. M.M.Baxtin ta’kidlaganidek, madaniyatlar o‘zaro ta’sir orqali bir-birini boyitadi, ularni boshqa madaniyatlar bilan solishtirganda.

Madaniyatlarni farqlash shaxsning o‘z milliy madaniyatini chuqurroq tushunishiga imkon beradi. M.M.Morozov asl matnga iloji boricha yaqin tarjimani yaratish boshqa til yordamida madaniyatlararo muloqotni osonlashtirishni talab qiladi. Tarjima matnining ravonligi madaniy belgilarni lingvistik ifodalashga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Tarjimonning vazifasi faqat matnni bir tildan ikkinchi tilga bevosita tarjima qilish emas, balki asl madaniyatning noyob xususiyatlarini maqsadli auditoriyaning madaniy vositalari orqali yetkazishdir. Matnni tarjima qilishda tarjimon qaysi yondashuv va qaysi muloqot, kognitiv yoki lingvistik bilimlarga tayanishni tanlaydi.

(cc) BY

Tarjima jarayonida tarjimon matnning ayrim jihatlarini ikkala til madaniyatiga moslashtirish uchun o‘zgartirishi mumkin, matnga yangi ma’nolar kiritadi. Lingvistik-madaniy va lingvistik moslashuvlar tarjima matnida paydo bo‘lganda, moslashuv strategiyalarini o‘rganish zarur bo‘ladi.

Tarjima nazariyasida “moslashtirish” (adaptatsiya) atamasi asosan ikki ma’noda ishlatiladi: a) tarjima texnikasi sifatida, b) noma’lum birlikni almashtirish sifatida. Bundan tashqari, ushbu atama tarjima matni va asl matn orasida ekvivalentlikni ta’minlash usulini ham bildiradi. Moslashtirishning ikkinchi shakli tarjima matnlarida qo‘llaniladi. Bu yerda ijtimoiy-madaniy moslashtirish o‘quvchining madaniyatiga xos ijtimoiy haqiqat bilan bog‘liq ma’no salohiyatini aks ettiradi.

Xulosa: Tadqiqotchilar matnni moslashtirishning ikki an’anaviy asosiy turini ajratadilar: a) lingvistik-madaniy va b) lingvistik. Lingvistik-madaniy moslashtirish madaniy kodlarni, ya’ni gapning asosiy tuzilmalarini bir tildan boshqa tilga o‘tkazish jarayonini o‘z ichiga oladi, lingvistik moslashtirish esa yuzaki tuzilmalarni o‘tkazish jarayonini anglatadi. Gapning asosiy tuzilmasi semantik munosabatlar majmuasi sifatida qaraladi, bunda madaniy tushunchalar qo‘shimcha ma’nolar bilan namoyon bo‘ladi. Yuzaki tuzilmalar so‘zlar, belgilar, grammatik strukturalar va nutq shakllarini o‘z ichiga oladi. G.T. Kukhun matnni moslashtirish quyidagi hollarda zarur deb hisoblaydi[5]: a) matn maqsadli auditoriyaga mos kelmasa, b) matn har qanday madaniy va lingvistik parametrlar bilan muvofiqlashtirilishi lozim bo‘lsa.

Nazariyalarga asoslanib, matnni moslashtirishning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Asosiy va ikkilamchi manzillar turli madaniyat va tillarga mansub bo‘ladi. Matn ona tilga yoki chet tilga moslashtirilishi mumkin. Matnni moslashtirish uchun til va madaniyat bilimlari talab etiladi.

2. Asosiy va ikkilamchi manzillar bir xil madaniyat yoki tilga mansub bo‘lsa-da, ulardan biri turli submadaniyat vakili hisoblanishi mumkin. Bunda moslashtirish bir til shakli va mazmunini soddalashtirib, uni qulayroq tushunarli qiladi. Tarjimon ikkala til submadaniyatini bilishi zarur.

3. Asosiy va ikkilamchi manzillar bir xil madaniyatga mansub, lekin tarjima qilinayotgan matn mavzusidan xabardor emas. Bunda moslashtirish jarayoni muayyan termin yoki tushunchalarni tushunishni osonlashtirish uchun qo‘llaniladi. Moslashtirishning maqsadi matn mazmunini yetkazishning maqbul usulini topishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rubel, P. Translation and the Multicultural Perspective. - New York: Palgrave Macmillan, 2003.

(cc) BY

2. Garbovskiy N. K. Translation as an Interaction of Cultures. - St. Petersburg: Russian State University for the Humanities, 2007.

3. Eko U. Experiences in Translation. - Toronto: University of Toronto Press, 2006.

4. Нелюбин Л. Л. Лингвистика и перевод. - Москва: Гнозис, 2006.

5. Кухун Г. Т. Перевод и коммуникация. - Москва: Наука, 2005.

6. Комиссаров В. Н. Теория перевода: Лингвистические аспекты. - Москва: Высшая школа, 2004.

7. Болдирева Н. Н. Лингвистика и культурная коммуникация. - Москва: Академия, 2021.

8. Маслова В. А. Культурная семантика и перевод. - Москва: Наука, 2014.

9. Гачев Г. Национальный мир в языке и культуре. - Москва: Прогресс, 1999.

(cc) BY